
NOGIRONLIK ARAVACHASI BERILDI



Katta boltako'l mahalla fuqarolar yig'ini, Ariq boshi ko'chasi, 2-uyda yashovchi Salimaxon Ahmedova bundan besh yil oldin suyak yemirilishi kasalligiga chalingan edi. Ushbu kasallik tufayli Salimaxon Ahmedova to'shakka mixlanib qoldi, hozirda yura olmaydi. U tuman hokimi Ilyos Novikovga murojaat qilib o'zining vaziyatini tushuntirdi hamda nogironlik aravachasi zarur ekanligini bildirdi.



Bugun ushbu murojaatga ko'ra tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari Axrorjon Yunusov hamda tuman hokimi o'rinbosari, mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i Z.Komilovlar ishtirokida Salimaxon Ahmedovaga nogironlik aravachasi, oziq-ovqat mahsulotlari topshirildi.

Bemor va ijtimoiy himoyaga muxtoj insonlarning ko'nglini ko'tarish maqsadida tashkil etilayotgan tadbirlarda Farg'ona viloyati Nogironlar assotsiatsiyasi qoshidagi "Nabilloxon Ma'murxon To'rayevlar" unitar korxonasi Qo'shtepa tumani filiali ham yaqindan hamkorlik qilmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-01-10 13:45:11